

Mamasoliyeva Gulchexra Abduxalilovna

Andijon davlat chet tillar instituti

Frantsuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasи o'qituvchisi

E-mail:mgulichexra@mail.ru

FRANSUZ VA O'ZBEK TILI UNLILARINING PARADIGMATIK HOLATDAGI OPPOZISIYASI

Annotatsiya: Maqlada tilshunoslikning bo'limi bo'lgan fonologiyada turli tillar oilasiga mansub bo'lgan fransuz va o'zbek tili paradigmatic holatdagi unlilar oppozisiyasi xususida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: lablanmagan, lablangan, sof tovush, oppozitsiya, burunlashgan, qo'shimcha belgi.

Ma'lumki, unlilarning nutq jarayonida qanday voqelanishidan qat'iy nazar, sistemada o'zaro zidlanish asosida farqlovchi belgilarni majmuasi sifatida tavsiflanishga ularning paradigmatic tavsifi deyiladi.

Har qanday paradigmatic tavsif sintagmatika materiallariga asoslanadi. Sintagmatikadagi unlilarning barcha belgilardan farqlovchi belgilarning ajratib olinishi fonemalarini farqlovchi eng kichik birlik sifatida belgilashga imkon beradi. Invariantlar tavsifi quyidagicha bo'ladi:

- 1) keng, lablanmagan unli;
- 2) keng, lablangan unli;
- 3) o'rta keng, lablanmagan unli;
- 4) o'rta keng, lablangan unli;
- 5) tor, lablanmagan unli;
- 6) tor, lablangan unli.

O'zbek adabiy tilida farqlanish belgisiga ko'ra unlilar quyidagicha tavsiflanadi:

Yuqoridagi unlilar sintagmatik planda, bevosita nutq jarayonida turli xil qo'shimcha belgilarga ega bo'lib, invariantning xilma-xil variantlagini hosil qiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalarining differensial belgilari va ularning sintagmatik qurshovda qo'shimcha belgilari bilan variantlanishini quyidagi chizmada ifodalash mumkin. Bu chizmada ichki doiradagi belgilarni unli fonemalarning asosiylari, markaziylari, relevant belgilari bo'lsa, tashqi doiradagi belgilarni ikkinchi darajali, qo'shimcha, chegara, irrelevant belgilardir.

Invariantlar A va V, S va D chiziqlaridagi belgilar munosabatidan tashkil topgan butunliklar bo‘lsa, variantlar bu belgilardan tashqari tashqi doiradagi belgilarni ham o‘zida namoyon qiladi. Bulardan A-V chizig‘i fonemalarning lab belgisiga ko‘ra zidlanishini o‘zida nomoyon qiladi. Bu jihatdan hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi unlilar o‘zaro privativ zidlanadi. Ularning bir guruhi lablanish belgisiga ega, markerlangan, shuning uchun bu belgiga ko‘ra kuchli a’zolar sanaladi.

Ikkinci guruh esa zidlanishning kuchsiz a’zolari sanalib, bunday belgiga ega emas. Markerlanmagan. Shu bois ular –ishorasi bilan ifodalandi. S-D chizig‘i og‘izning ochilishi darajasi belgisiga ko‘ra unlilar zidlanishini ko‘rsatadi. Bunga ko‘ra hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi unlilar o‘zaro gradual zidlangan. Ularning hammasi bu belgiga ega, lekin turli darajada.

Fonetika va fonologiyaning bir-biri bilan uzviy aloqadorligi ularning bir xil atamalardan foydalanishida ham ko‘rinadi. Fonetika uchun tovushlarning izohiga doir bo‘lgan barcha atamalar, ya’ni old qator unlisi, til yuqori ko‘tarilishidagi unli, lablangan, lablanmagan va hokazolar ularning faqat artikulyasion-akustik xususiyatlariga xos bo‘lsa, fono-logiya uchun bu atamalar farqlanish belgilarini izohlovchi atamalar sifatida qaraladi. Fonemalarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish va farqlanishni bu atamalarsiz qiyos etnb bo‘lmaydi. Tildagi fonemalar, dialektik jihatdan qaralganda, akademik L. V. Shcherba ta’rif etganidek «... butun bir qarama-qarshiliklar sistemasini tashkil etadi».

Fonemalarning hosil bo‘lish o‘rni va usuliga ko‘ra, tasniflash fonetik va fonologik tasnif uchun umumiy usul hisoblanadi. Agar fonetik tasnif fonemalarning barcha arti-kulyasion-akustik xususiyatlariga asoslansa, fonologik tasnif, shu xususiyatlар ichidan asosiylarini tanlab oladi: ularga funksional jihatdan qarab, farqlanish belgilarini topadi. Fonemalarni artikulyasion va akustik jihatdan farqlashga xizmat qiluvchi alomatlar farqlanish belgilari (differen-sial’niy priznak) deb yuritiladi. Fonema tushunchasi ana shunday belgilarning yig‘indisi sifatida tushuniladi.

Ma'lumki, fransuz va o‘zbek adabiy tili unlilarini paydo bo‘lishi o‘rniga ko‘ra tasniflashda bir necha qarashlar mayjud. Hozircha biz ikki xil qarash haqida to‘xtalib o‘tamiz. Birinchi qarash tarafdarları unlilarni til oldi, oraliq (indifferent) va orqa qatorga bo‘ladi. Ikkinci qarash tarafdarları esa, unlalarni til oldi va til orqa vatorga ajratadi va bu eksperimental-fonetik tekshirishlar orqali tasdiqlanadi. Biroq fransuz va o‘zbek tillari fonetikasiga doir adabiyotlarda unlilar tasnifidagi ana shu ikki xillik haqida hech nima aytilmaydi. Quyida o‘zbek adabiy tili unli fonemalari tasnifidagi ana shu ikki xillik haqida o‘z mulohazalarimizni bayon etamiz.

O‘zbek tili unlilarining bu fonetik tasnifi fransuz tili unlilari bilan qiyoslash asosida beriladi. Chunki ikki tildagi unli tovushlarning talaffuzini qiyoslashda akustik tomondan yaqin tovushlar , chunonchi o‘zbek va fransuz tillaridagi i, u, a, ye – i, u, o , e kabilar fiziologik hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra, bir tipdagи unlilar bo‘lmay, balki ular til oldi va orqa qatorlarini har birining ikki xil ko‘rinishiga egaligi, ya’ni til oldi va til orqa, yo‘nalishidagi til oldi va til orqa, old yo‘nalishdagi til orqa unlilarga bo‘linishini hisobga olish orqali aniqlikka erishish mumkin. Ayrim tillar fonetikasiga doir adabiyotlarda oraliq qator tushunchasini uchratmadik.

Professor V.V.Reshetov o‘zbek tili unlilari tasnifida birinchi bo‘lib oraliq qator tushunchasini tavsija etgan. Bizningcha, bu atamaning ishlatalishida boshqa bir tomon ham bor. Oraliq qator terminini umumiy tavsifida berilib, ularning har birini alohida tavsif qilishda

esa, qator belgilarini ko‘rsatmay o‘tishi ko‘rinidi. Bunda mashhur olimning o‘zbek tili unlilarini tavsif qilishda bir yo‘la fonetik va fonologik yo‘nalishini hisobga olganlagini sezish mumkin. Haqiqatan ham, ayniqsa o‘zbek tilidagi i, u, o‘, a unlilarning til oldi undoshlaridan keyin esa til oldi, til orqa undoshlaridan keyin esa til orqa variantlarga ega bo‘lishi fonologik jihatdan qator belgisi ahamiyatsiz ekanligini tasdiqlaydi.

Demak, o‘zbek tili unlilaridan i, u, o‘, a; fransuz tili unlilaridan i, u, o, e qator belgilari bilan farqlanmay, fonologik nuqtai nazardan “oraliqda” qolgan bo‘lib hisoblanadilar. V.V.Reshetovning oraliq qator unlilarini alohida ajratishiga sabab ham ularning fonologik tabiatini nazarga olganligidir

Foydalanalagan adabiyotlar:

1. Л. В. Щерба. Фонетика Французского языка, М., 1957, с. 20
2. А..Мартине. Принцип экономии в фонетических изменениях (перевод с Французского), М., 1960, с. 94-95.
3. В. В. Решетов. Узбекский язык, часть I. Фонетика. Ташкент. 1959, с. ИЗ, III. Шоабдурахмон о.в. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари, Тошкент, 1962, 42-бет
4. Е.Д.Поливанов.Узбекская диалектология и узбекский литературный язык, Ташкент, 1933, с.14; Ҳозирги ўзбек адабий тили” 1.Тошкент, 1968, 19-бет.